

SURXONDARYO VILOYATIDA DAM OLISH VA SOG‘LOMLASHTIRISH MASKANLARI TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Tilovov Qorjov Bekbayevich

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-0235-0363>

qorovbekbayevich5@gmail.com

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari tizimining shakllanishi hamda rivojlanish tendensiyalari tarixiy va zamonaviy jarayonlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatda faoliyat yuritayotgan sanatoriylar, sog‘lomlashtirish maskanlari, bolalar oromgohlari va ekoturizm obyektlarining rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Xususan, Abu Ali Ibn Sino, Farhod, Gulbahor, Balxin sanatoriylari, Oqtosh va Vandob sog‘lomlashtirish maskanlari, shuningdek, Uchqizil suv ombori hududida tashkil etilgan “OXUS” dam olish maskani faoliyati misolida hududning rekreatsion salohiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo viloyati, sog‘lomlashtirish tizimi, sanatoriylar, bolalar oromgohlari, rekreatsion infratuzilma, OXUS dam olish maskani.

Аннотация: В данной статье на основе исторических и современных процессов анализируются формирование и тенденции развития системы отдыха и оздоровительных учреждений Сурхандарьинской области. В исследовании освещены этапы развития санаториев, оздоровительных комплексов, детских лагерей отдыха и объектов экотуризма, функционирующих в регионе. В частности, на примере санаториев имени Абу Али ибн Сино, «Фарход», «Гулбахор», «Балхин», оздоровительных учреждений «Октош» и «Вандоб», а также зоны отдыха «OXUS», созданной на территории Учкизильского водохранилища, проанализирован рекреационный потенциал региона.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, система оздоровления, санатории, детские оздоровительные лагеря, рекреационная инфраструктура, зона

отдыха «OXUS».

Abstract: This article analyzes the formation and development trends of the recreation and health resort system in Surkhondaryo Region based on historical and contemporary processes. The study highlights the stages of development of sanatoriums, health improvement centers, children’s recreation camps, and ecotourism facilities operating in the region. In particular, the recreational potential of the region is examined through the examples of the Abu Ali Ibn Sino, Farhod, Gulbahor, and Balkhin sanatoriums, the Oqtosh and Vandob health resorts, as well as the OXUS recreation complex established in the Uchqizil Reservoir area.

Keywords: Surkhondaryo Region, health improvement system, sanatoriums, children’s recreation camps, recreational infrastructure, OXUS recreation complex.

KIRISH (BBEДЕНИЕ / INTRODUCTION). So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi, xususan dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatning tabiiy-geografik salohiyati, iqlim sharoiti hamda mavjud suv resurslari asosida ekoturizm, tibbiy turizm va rekreatsion xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda hududiy rivojlanish, aholining bandligini ta‘minlash hamda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalari muhim o‘rin tutadi.

Surxondaryo viloyati o‘zining tog‘li hududlari, suv omborlari, tabiiy iqlimiy sharoiti va tarixiy-madaniy merosi bilan dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda so‘nggi yillarda amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari natijasida zamonaviy sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, ekoturizm maskanlari hamda ko'p funksiyali dam olish majmualari barpo etilmoqda.

Xususan, "Termiz marvaridi", "OXUS" dam olish maskani, "Amudaryo" va "Beshbuloq-Surxon-Sherobod" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari kabi obyektlarning modernizatsiya qilinishi va yangi infratuzilmalarning shakllanishi hududda turizm xizmatlari sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, suv omborlari atrofida ekoturizmni rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda xalqaro va mahalliy turizm oqimini kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Turum Mo'minov Surxondaryo viloyatida sanatoriy-kurort tizimini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan mutaxassislardan biri hisoblanadi. U 1986–1990-yillarda viloyatda yagona bo'lgan Abu Ali Ibn Sino nomidagi sanatoriyni bunyodkori va asoschisi bo'ldi. 1991-yilda tashkil etilgan viloyat Sanatoriylar boshqarmasiga rahbar etib tayinlangach, soha rivojiga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida 1991–1993-yillarda "Farhod" va "Gulbahor" sanatoriylari qurilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 2003-yilda Denov tumanida viloyatdagi ilk xususiy sog'lomlashtirish muassasalaridan biri bo'lgan "Balxin" xususiy sanatoriysi tashkil etildi. Mazkur sanatoriylar aholiga davolash va sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish bilan birga, viloyatda sanatoriy-kurort tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi[4].

Sherobod tumanida 2012-yildan faoliyat ko'rsatayotgan "Oqtosh" va "Vandob" sanatoriy hamda sog'lomlashtirish oromgohlari tuman aholisining sog'lom dam olishini tashkil etish va tibbiy-sog'lomlashtirish xizmatlarini takomillashtirishda muhim o'rin egalladi. Mazkur maskanlarning faoliyati hududda sanatoriy-kurort tizimi infratuzilmasining kengayishi va aholiga ko'rsatilayotgan sog'lomlashtirish xizmatlari sifatining oshishiga xizmat qildi[5].

Surxondaryo viloyatida dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari tizimining rivojlanishi so'nggi yillarda amalga oshirilgan davlat siyosati va investitsion loyihalar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 10–11-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida Termiz tumanidagi Uchqizil suv ombori hududida zamonaviy dam olish va sog'lomlashtirish maskanlarini tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlar mazkur yo'nalish rivojida muhim bosqich bo'ldi. Shundan so'ng "Termiz marvaridi" MChJ negizida rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, zamonaviy sanatoriy va "Marvarid" dam olish maskani foydalanishga topshirildi. Ushbu obyektlar hududda tibbiy turizm va rekreatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qildi[9].

Viloyatda ekoturizmni rivojlantirish jarayonida Uchqizil suv ombori bo'yida "Universal argalid" MChJ tomonidan tashkil etilgan "OXUS" dam olish maskani alohida ahamiyat kasb etdi. Loyihaning umumiy qiymati 17 milliard so'mdan ortiq bo'lib, besh gektarlik tashlandiq hudud obodonlashtirildi. Ikki yil davomida qumloq maydonlar tekislanib, tosh va chiqindilardan tozalandi, unumdor tuproq keltirildi hamda 3 mingdan ortiq mevali va mingdan ziyod manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Dastlabki bosqichda umumiy ovqatlanish va savdo nuqtalari, go'zallik saloni, basseyn, bolalar maydonchasi, minifutbol maydoni, tennis korti hamda mini hayvonot bog'i tashkil etildi. Shuningdek, 17 o'rinli va ikkita 3 o'rinli motorli qayiqlar xarid qilinib, suv sayohatlari uchun imkoniyat yaratildi. Loyihaning to'liq amalga oshirilishi natijasida 200 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib, dastlabki bosqichdayoq 50 ga yaqin fuqaro ish bilan ta'minlandi[7].

Viloyatda turizmni rivojlantirishda suv omborlari atrofidagi hududlardan foydalanish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham muhim omil bo'ldi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini

takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida Qumqo'rg'on tumanidagi Janubiy Surxon, Termiz tumanidagi Uchqizil va Sariosiyo tumanidagi To'palang suv omborlari atrofida yangi turistik obyektlarni tashkil etish ishlari boshlandi. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham bu jarayonlarni jadallashtirdi[3].

Surxondaryo viloyatida sog'lomlashtirish maskanlari tizimining muhim tarkibiy qismi bolalar oromgohlari hisoblanadi. 2017-yilda Sherobod tumanida O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 5,5 milliard so'm mablag' evaziga "Beshbuloq-Surxon-Sherobod" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi barpo etildi. 4,5 gektar maydonda qurilgan ushbu maskanda yotoq binolari, ma'naviyat va tibbiyot xonalari, oshxona, basseyn, sport maydonchalari hamda kutubxona va to'garak xonalari tashkil qilindi. Oromgoh bir mavsum davomida 1300 nafarga yaqin bolani qamrab olish imkoniyatiga ega bo'ldi[6].

Shu yili Termiz shahrida O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 34 milliard so'm mablag' sarflanib, 6 gektardan ortiq maydonda "Amudaryo" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi qurildi. 200 o'ringa mo'ljallangan ushbu zamonaviy maskanda madaniyat va ma'rifat markazi, axborot-resurs markazi, yozgi amfiteatr, tantanalar maydoni, basseyn, futbol, voleybol, basketbol va tennis maydonchalari bunyod etildi. Oromgoh faoliyatining dastlabki yilidayoq 1000 nafardan ortiq bolalarni sog'lomlashtirish rejalashtirilgan edi. Keyingi yillarda "Amudaryo" oromgohi viloyatdagi eng yirik bolalar dam olish maskanlaridan biriga aylandi[6].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sariosiyo tumanidagi "Xonjiza" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ham hududning rekreatsion infratuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Tuman markazidan 70 kilometr uzoqlikda, ekologik toza tog' hududida joylashgan ushbu oromgoh 3,5 gektar maydonni egallaydi. Unda sport

maydonchalari, basseyn, konsert sahnasi, yozgi kinoteatr va kutubxona faoliyat yuritadi. Bolalarning sport va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tennis, voleybol, basketbol va futbol bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilgan. Oromgohning dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashgani uning sog'lomlashtirish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

2020-yilga kelib viloyatdagi ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari tarkibida 18 ta dam olish pansionati, 3 ta katta yoshdagilar uchun sanatoriy, 2 ta bolalar sanatoriysi, 3 ta doimiy faoliyat yurituvchi sog'lomlashtirish sanatoriya-ormogohi, 2 ta sanatoriya-profilaktoriy va boshqa turdagi sog'lomlashtirish muassasalari faoliyat yuritgan. Bu ko'rsatkichlar viloyatda dam olish va sog'lomlashtirish tizimining institutsional jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi[8].

Pandemiyadan keyingi davrda bolalar oromgohlari faoliyati bosqichma-bosqich tiklandi. Surxondaryo viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda "Sardor Parvin", "Xonjiza", "Mirob", "Vaxshivor", "Neftchi", "Beshbuloq Surxon Sherobod", Xolmuhammad Qulniyozov nomidagi, "Vandob oltin bulog'i" va "Amudaryo" kabi to'qqizta statsionar oromgoh faoliyat yuritgan. Ushbu maskanlarda besh mavsum davomida 6200 nafardan ortiq bolani dam oldirish rejalashtirilgan bo'lsa, 2023-yilda 9 ta statsionar oromgohda 7220 nafar bolani sog'lomlashtirish ko'zda tutilgan[6].

2024-yil 29-maydagi PQ-199-sonli Prezident qarori bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Qarorga muvofiq, Surxondaryo viloyatidagi "Janub gavhari", "Surxon tongi" va "Sherobod" bolalar oromgohlarini rekonstruksiya qilish, "Xonjiza", "Beshbuloq" va "Amudaryo" oromgohlarining infratuzilmasidan yil davomida samarali foydalanish choralari belgilandi. Shuningdek, Denov tumanidagi "Chashma" bolalar oromgohini rekonstruksiya qilish ham rejalashtirildi. Mazkur qaror asosida 2024-2025-yillarda viloyat uchun mahalliy

byudjet mablagʻlari hisobidan har yili 5 milliard 175 million soʻm ajratilishi koʻzda tutilgan[1].

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida dam olish va sogʻlomlashtirish maskanlari tizimining rivojlanishi turizm, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy siyosatning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida yuz bermoqda. Hududda zamonaviy dam olish maskanlari, sanatoriylar va bolalar oromgohlarining tashkil etilishi nafaqat aholining dam olishi va salomatligini mustahkamlashga, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, xizmatlar sohasini kengaytirish hamda viloyatning turistik jozibadorligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bu esa Surxondaryoning Oʻzbekistonning muhim rekreatsion va turistik hududlaridan biriga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxondaryo viloyatida dam olish va sogʻlomlashtirish maskanlari tizimining rivojlanishi mustaqillik yillarida

amalg oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda turizm sohasini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati natijasida yangi bosqichga koʻtarildi. Viloyatning tabiiy-geografik imkoniyatlari, togʻli hududlari, suv omborlari va shifobaxsh iqlimi rekreatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida dam olish va sogʻlomlashtirish maskanlari tizimining rivojlanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, turizm salohiyatining yuksalishi va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Kelgusida mavjud maskanlarni modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, ekoturizm va tibbiy turizm yoʻnalishlarini yanada kengaytirish orqali viloyatning rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari yanada ortadi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori. “Bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”. URL: LexUZ milliy qonunchilik bazasi (murojaat qilingan sana: 21.04.2026).
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 978-son qarori. “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonolari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”. URL: LexUZ milliy qonunchilik bazasi (murojaat qilingan sana: 21.04.2026).
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-son qarori. “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”. URL: LexUZ milliy qonunchilik bazasi (murojaat qilingan sana: 21.04.2026).
4. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – Toshkent: Fan, 2009. – 501 b.
5. Tursunov S., Tursunov A., Togʻayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 353 b.
6. Surxondaryo viloyati Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi maʼlumotlari. – Termiz, 2017–2024.
7. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi statistik toʻplami. – Termiz, 2021.
8. Surxondaryo viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.
9. <https://yuz.uz/uz/news/surxondaryoda-yana-bir-zamonaviy-dam-olish-maskani-ish-boshladi>